UO‘K 811.619

TILSHUNOSLIKDA PARONIMIYA VA PARONOMAZIYA FENOMENLARI: UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI
(O‘ZBEK VA NEMIS TILLARI MISOLIDA)

Ozatova Nodira Quvondiq qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967767

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilshunoslikda muhim stilistik va leksik hodisalar sirasiga kiruvchi paronimiya va paronomaziya fenomenlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu ikki hodisaning lingvistik mohiyatini aniqlash hamda ularning o‘zbek va nemis tillarida namoyon bo‘lish xususiyatlarini chog‘ishtirma jihatdan o‘rganishdan iborat. Maqolada paronim so‘zlarning fonetik o‘xshashligi va semantik farqlanishi, paronomaziyaning esa badiiy nutqdagi stilistik vosita sifatidagi funksiyasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ushbu hodisalar til boyligini namoyon etuvchi muhim lingvistik vositalardan biri ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *paronimiya, paronomaziya, paronim so‘zlar, fonetik o‘xshashlik, badiiy nutq, stilistika.*

Аннотация. *В данной статье анализируются феномены паронимии и парономазии, входящие в ряд важных стилистических и лексических явлений лингвистики. Основная цель исследования заключается в определении лингвистической сущности данных двух явлений, а также в сравнительном изучении особенностей их проявления в узбекском и немецком языках. В статье рассматриваются фонетическое сходство паронимических слов и семантическое их различие, а также функция парономазии как стилистического средства в художественной речи. В результате исследования обосновывается, что данные явления являются важными лингвистическими средствами, демонстрирующими богатство языка.*

Ключевые слова: *паронимия, парономазия, паронимы, фонетическое сходство, художественная речь, стилистика.*

Abstract. *This article analyzes the phenomena of paronymy and paronomasia, which rank among the important stylistic and lexical phenomena in linguistics. The main objective of the study is to identify the linguistic essence of these two phenomena and conduct a comparative analysis of their manifestations in Uzbek and German languages. The article examines the phonetic similarity and semantic differentiation of paronymic words, as well as the function of paronomasia as a stylistic device in artistic speech. The research concludes that these phenomena represent significant linguistic tools demonstrating the richness of the language.*

Keywords: *paronymy, paronomasia, paronymic words, phonetic similarity, artistic speech, stylistics.*

Kirish. Til inson tafakkuri, madaniyati hamda ijtimoiy hayotining eng muhim kommunikativ vositalaridan biri hisoblanadi. Til tizimi o‘zining murakkab tuzilishi bilan ajralib turadi va unda fonetik, morfologik, sintaktik hamda leksik darajalar o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Tilning leksik tizimi esa so‘zlar o‘rtasidagi turli semantik va fonetik munosabatlar orqali shakllanadi. Bu

munosabatlar tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirib, nutqning stilistik boyligini ta’minlaydi. O‘zbek tilshunoslari ta’kidlaganidek, tilning leksik tarkibi doimo rivojlanishda bo‘lib, unda so‘zlar o‘rtasidagi ma’no va shakl jihatidan o‘xshashlik hamda farqlanishlar muhim lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi [1.7].

Tilshunoslikda so‘zlar o‘rtasidagi shakliy va semantik munosabatlarning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular orasida sinonimiya, antonimiya, omonimiya va paronimiya alohida o‘rin egallaydi. Xususan, boshqa leksik hodisalarga qaraganda paronimiya tilshunoslikda nisbatan torroq doirani qamrab olsa-da, so‘zlarning shakliy o‘xshashligi va semantik farqini o‘rganishda hamda nutqiy g‘alizlikning oldini olishda juda muhim hisoblanadi. Shu sababdan quyida paronimiya hodisasi va unga tutash fenomen hisoblangan paronomaziya hodisalarining nazariy asoslari tahlil qilinadi hamda ularning o‘zbek va nemis tillarida namoyon bo‘lish xususiyatlari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Paronimiyani zamonaviy leksikografiya va korpus lingvistikasi nuqtai nazaridan chuqur o‘rgangan nemis lingvisti P.Storjohanning ta’kidlashicha “paronimiya leksikografiya uchun jiddiy masala hisoblanadi, chunki fonetik jihatdan deyarli bir xil shaklga ega so‘zlar semantik jihatdan tubdan farqlanadi. Bu foydalanuvchilarni chalkashtiradi va lug‘atlarning izohlovchi quvvatini pasaytiradi” [12.45]. Shuningdek, tilshunosning fikriga ko‘ra fonetik yaqinlikdagi paronimlar inson tafakkurida semantik noaniqliklarga sabab bo‘ladi, shuning uchun ularni nafaqat lug‘atshunoslik, balki kognitiv lingvistika doirasida ham tadqiq etish lozim. Ko‘p hollarda paronimiya bilan qorishtiriladigan til hodisasi bu unga tutash *paronomaziya* hodisasi hisoblanadi. Paronomaziya fonetik jihatdan o‘xshash yoki bir-biriga yaqin so‘zlardan stilistik maqsadda foydalanish orqali yuzaga keladigan nutqiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Bu xususida tilshunosimiz H.Jamolxonov shunday deb yozadi: “paronomaziya – jonli so‘zlashuvda paronim so‘zlarni qorishtirish hodisasidan badiiy nutqda uslubiy maqsadlarda foydalanish”. “Charxpalak” videofilmidan keltirilgan quyidagi epizodda buni yaqqol sezish mumkin. Unda atrofiga laganbardor yugurdaklarni to‘plab olgan bir obro‘talab, mansabdor shaxs aroq ichishdan bosh tortgan raqqosa qiz Zulxumor Hamidovaga qarata shunday deydi: “Mayli, majbur qilmaymiz, bizga bu qizning sanoati juda ma’qul”. Bu nutqiy parchada sanoat so‘zi san’at leksemasi o‘rnida qo‘llangan bo‘lib, u jamiyatda uchrab turadigan ayrim shaxslarning ma’naviy qashshoqligini, tilga befarqligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Demak, asar muallifi (Sharof Boshbekov) shu epizodni tasvirlashda san’at va sanoat so‘zlarining paronimlik munosabatidan juda o‘rinli foydalangan [7.183–184]. Paronimiyaning bunday so‘z o‘yini sifatida aks etishini paronomaziya termini bilan atagan yana bir tilshunos olim A.Hojiyev ham

paronomaziyaning material manbai paronimiya ekanligini tasdiqlaydi, biroq uning fikriga ko‘ra har qanday paronomaziyani paronim yuzaga chiqarishi kerak, deb bo‘lmaydi. Chunki paronimiya – til hodisasi, paronomaziya – nutq hodisasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik va kontrastiv lingvistik metodlar asosida o‘zbek va nemis tillaridagi paronimiya hamda paronomaziya hodisalari tahlil qilindi. Shuningdek, tavsifiy va semantik tahlil usullari yordamida ushbu fenomenlarning lingvistik mohiyati, strukturaviy xususiyatlari hamda nutqdagi funksional qo‘llanishi aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida nazariy manbalar va amaliy misollar asosida umumlashtirish hamda tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Paronimiya hodisasi fonetik jihatdan o‘xshash, ammo semantik jihatdan turli ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar o‘rtasidagi munosabat sifatida izohlanadi [2.108–110]. Paronimlar odatda bir yoki ikki tovush bilan farqlanadi, shuning uchun ham ular nutqda ba’zan adashtirib ishlatilishi mumkin. O‘zbek tilida paronim so‘zlar keng tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pincha fonetik o‘xshashlik asosida yuzaga keladi. Masalan, *taqya* (“sidirg‘a matodan tayyorlangan do‘ppi”) va *takya* (“odamlar to‘planib ulfatchilik qiladigan joy”), *sallox* (“qassob”) va *saloh* (“to‘g‘rilik”, “vijdonlilik”) kabi paronimik juftliklar talaffuz jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, semantik jihatdan turli ma’nolarni ifodalaydi. Sh. Rahmatullayevning ta’kidlashicha, paronimik birliklar nutq madaniyati nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ularni noto‘g‘ri qo‘llash kommunikativ chalkashliklarga olib kelishi mumkin [3.49]. Paronimlarning yuzaga kelishiga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin. Birinchidan, til taraqqiyoti jarayonida tovush o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Bu esa ayrim so‘zlarning talaffuz jihatidan bir-biriga yaqinlashishiga olib keladi. Ikkinchidan, boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham paronimlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Paronimiya hodisasi nafaqat o‘zbek tiliga, balki boshqa tillarga ham xos bo‘lgan universal lingvistik hodisadir. Jumladan, nemis tilshunosligida ham paronimik birliklar alohida til hodisasi sifatida tadqiq qilinadi. Bir-biri bilan talaffuzdosh bo‘lgan so‘zlarning tabiatiga katta qiziqish bildirgan nemis tilshunoslaridan biri I.Lazarescu paronimiya hodisasini tadqiq etar ekan, o‘z ilmiy ishlarida paronimlarga shunday ta’rif keltiradi: “paronimlar deb aynan bir yoki turli etimondan hosil bo‘lgan, bir-biriga formal (fonetik va grafik) jihatdan juda o‘xshash bo‘lib, nutqda adashtirilishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni ataymiz” [11.4]. *Formal-formell, konkav-konvex, konzeptuell-konzeptionell, kindisch-kindlich, sensibel-sensitiv* kabi juftliklarni nemis tilidagi paronimlarga yaqqol misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

Til hodisasi nutq hodisasi nuqtai nazaridan belgilanmaydi [4.256]. Masalan: Bog‘ sizniki. *Uzum*ini yeysiz. Keyin «*o‘zim* yeyapman» deb yuraverasiz. (Maxsum askiyabozdan). Demak, paronomaziya (gr. “para” – yaqin va “onomazo” – chaqiraman) – tovush yoki tuzilish jihatidan o‘xshash so‘zlarni qasddan yonma-yon foydalanish orqali ma’lum stilistik ta’sir hosil qilish usulidir. Paronomaziyada bir kontekstda morfologik tuzilishi bo‘yicha bir-biriga qisman bog‘liq so‘zlar, ya’ni paronimlar, shuningdek, tasodifiy o‘xshash yoki talaffuzdosh so‘zlar qo‘llanilishi mumkin. Bu hodisa ko‘pincha badiiy adabiyot, publitsistik nutq hamda notiqlik san’atida keng qo‘llanadi. Paronomaziya nutqga obrazlilik, ifodalilik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Masalan, “*Til – dil*ning tarjimoni” iborasida *til* va *dil* so‘zlari o‘rtasidagi tovush o‘xshashligi fikrning esda qolishiga yordam beradi. Yoki xalq maqollarida ham paronomaziya hodisasi ko‘p uchraydi: “Mehnat qilgan *to‘q* bo‘lar, mehnat qilmagan *yo‘q* bo‘lar”. Bu misolda *to‘q* va *yo‘q* so‘zlari o‘rtasidagi fonetik o‘xshashlik nutqga ritmik va badiiy ohang bag‘ishlaydi. Badiiy asarlarda yozuvchilar ko‘pincha o‘xshash tovushli so‘zlardan foydalanib, fikrni yanada obrazli va ta’sirchan ifodalaydilar. Paronomaziya yordamida yaratilgan iboralar o‘quvchi yoki tinglovchining xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Nemis tilshunosligida ham ushbu hodisa tilning stilistik imkoniyatlarini boyituvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Nemis tilshunosi Harald Burger paronomaziyani fonetik jihatdan o‘xshash birliklar asosida yaratilgan stilistik usul sifatida izohlaydi va uning badiiy matn hamda publitsistik nutqda keng qo‘llanishini ta’kidlaydi [9.72]. Paronomaziya nutqning ifodaviyligini oshirish, emotsional ta’sirini kuchaytirish hamda matnning estetik qiymatini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida *“bo‘lsa - bola, bo‘lmasa - balo”* kabi iboralar paronomastik konstruktsiyalarning yorqin namunasi hisoblanadi. Nemis tilida esa *“Wer rastet, der rostet”* kabi iboralar fonetik o‘xshashlik orqali yaratilgan stilistik effektni namoyon etadi. Zamonaviy tilshunoslikda paronimiya va paronomaziya tushunchalari ba’zan bir-biriga yaqin hodisalar sifatida talqin qilinadi. Biroq ularning lingvistik tabiati turlicha hisoblanadi. Paronimiya asosan til tizimining leksik darajasiga tegishli hodisa bo‘lsa, paronomaziya nutq jarayonida yuzaga keladigan stilistik vosita sifatida qaraladi. Nemis tilshunosi Wolfgang Fleischer ham ushbu hodisalarni ajratib ko‘rsatib, paronomaziyani stilistik figura sifatida baholaydi [10.123–140]. Paronimiya va paronomaziya o‘rtasida ma’lum o‘xshashliklar mavjud. Avvalo, har ikkala hodisada ham tovush jihatdan bir-biriga o‘xshash so‘zlar ishtirok etadi. Shu sababli ular ba’zan bir-biri bilan chalkashtirib yuborilishi mumkin. Biroq bu ikki tushuncha o‘rtasida muhim farqlar ham mavjud. Paronimiya til tizimiga xos hodisa hisoblanadi. Paronomaziya esa nutq jarayonida yuzaga keladigan stilistik vositadir. Bundan tashqari, paronim so‘zlar mustaqil lug‘aviy birliklar bo‘lib, ular

tilning lug‘at tarkibida mavjud bo‘ladi. Paronomaziya esa muallif tomonidan maqsadli ravishda yaratiladi va nutqqa badiiylik bag‘ishlash vazifasini bajaradi. Shunday qilib, paronimiya til tizimiga oid hodisa bo‘lsa, paronomaziya nutq stilistikasiga xos vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek va nemis tillari materiallari asosida paronimiya va paronomaziya hodisalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur fenomenlar har ikkala tilda ham so‘zlarning shakliy o‘xshashligiga asoslanadi. Shu bilan birga, ularning lingvistik mohiyati, qo‘llanish doirasi hamda nutqdagi funksiyalari o‘rtasida umumiy va farqli jihatlar mavjud. Avvalo, har ikkala tilda ham paronimiya fonetik yoki shakl jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, ammo ma’nosi turlicha bo‘lgan so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. O‘zbek tilida paronimlar ko‘pincha affikslarning almashishi yoki tovushlarning yaqinligi natijasida yuzaga keladi. Nemis tilida esa paronimlar ko‘proq umumiy ildizga ega bo‘lgan yoki fonetik jihatdan o‘xshash, lekin semantik jihatdan farqlanuvchi birliklar orqali shakllanadi. Har ikkala tilda ham bunday birliklar nutqda chalkashlik keltirib chiqarishi mumkinligi sababli ular nutq madaniyati va til o‘qitish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Paronomaziya esa o‘z mohiyatiga ko‘ra stilistik hodisa bo‘lib, o‘xshash tovushli so‘zlarning yonma-yon qo‘llanishi orqali badiiy yoki ekspressiv ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida paronomaziya ko‘pincha badiiy adabiyot, maqollar, publitsistik matnlar va notiqlik nutqida uchraydi. Nemis tilida ham bu hodisa asosan badiiy matnlar, reklama, publitsistika hamda ommaviy axborot vositalarida so‘z o‘yini yaratish maqsadida qo‘llanadi. Shu jihatdan qaraganda, paronomaziya har ikkala tilda ham stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq ayrim farqli jihatlar ham kuzatiladi. O‘zbek tilida paronimlarning shakllanishida affiksatsiya va fonetik yaqinlik muhim rol o‘ynasa, nemis tilida kompozitsiya va prefiksatsiya jarayonlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Paronomaziya hodisasida esa nemis tilida qisqa va aniq fonetik o‘yinlar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida ohangdorlik, ritm va ma’no uyg‘unligi orqali yanada kengroq stilistik effekt yuzaga kelishi mumkin. O‘zbek va nemis tillarida paronimiya va paronomaziya umumiy lingvistik asosga ega bo‘lsa-da, ularning yuzaga kelish mexanizmlari va nutqdagi qo‘llanish xususiyatlari har bir tilning fonetik, leksik hamda so‘z yasash tizimi bilan belgilanadi. Mazkur hodisalarni qiyosiy o‘rganish ikki tilning leksik boyligi va stilistik imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, paronimiya va paronomaziya tilshunoslikda muhim o‘rin tutuvchi hodisalardan hisoblanadi. Paronimiya shaklan o‘xshash, ammo ma’nosi turlicha bo‘lgan so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Paronomaziya esa o‘xshash tovushli so‘zlar yordamida nutqda badiiy ta’sir yaratish usulidir. Har

ikkala hodisa ham tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini namoyon etadi. Paronim so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash nutqning aniqligi va ravonligini ta’minlasa, paronomaziya esa badiiy nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Shu bois tilshunoslikda ushbu hodisalarni chuqur o‘rganish til taraqqiyoti, nutq madaniyati hamda badiiy adabiyot rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ходжиев А., Мухаммаджанова Г., Бегматов Э. и др.; Отв. ред. А. Ходжиев, А. Ахмедов. Лексикология узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1981. – 313 с.
2. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг лексикологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 224 б.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 384 б.
4. Ҳожиев А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Узбекистон ССР «Фан» Нашриёти, 1981. – 315 б.
5. Шукуров Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 320 б.
6. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 164 b.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: «Talqin», 2005. – 272 b.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
9. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2007. – S. 240.
10. Fleischer W., Barz I. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 2012. – S. 382.
11. Lăzărescu I. Deutsche Paronyme // Grazer Linguistische Studien. – 1995. – №43. – S. 25.
12. Storjohann P. Paronymie in der modernen Lexikografie // DWDS Jahresbericht. – Mannheim: Institut für Deutsche Sprache, 2015. – S. 52.